



## QORAQALPOQ TILI FANIDAN O'QUVCHILARNING 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

**Bekimbetova Gulbaxar**

*Pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)*

*Umumiy pedagogika va psixologiya rafedراسi  
docent, NDPI*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish, K modeli ko'nikmalarining turli sohalar va fanlarda ularning muhimligi, 4K tamoyili asosida o'quvchilarning qoraqalpoq tili fanidan kolloborativ ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari haqida ma'lumot keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация по вопросам развития навыков XXI века, актуальности навыков модели K в различных областях и дисциплинах, развития колlobоративных навыков учащихся по предмету каракалпакский язык на основе принципа 4K.

**Abstract:** This article provides information on the development of skills of the XXI century, the relevance of the skills of the K model in various fields and disciplines, the development of students' colloquial skills in the subject of the Karakalpak language based on the 4K principle.

Ta'limda aniq maqsad qo'yish va o'zlashtirilgan bilimlarni tanqidiy tekshirish uchun Blum taksonomiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. J.Vakkerning ta'kidlashicha, o'rganilgan bilimlarni real hayotda qo'llash uchun nazariyalarni o'rganish juda muhim hisoblanadi<sup>1</sup> Ushbu nazariya shaxsga yo'naltirilgan metodlarga asos bo'lib xizmat qiladi va uning eng muhim xususiyati shundaki, konstruktivizm nazariyasi asosida xorijiy til o'qitilganda ta'lim jarayonida o'qituvchining roli hamma savollarga javob beruvchi bilim manbai emas, balki yo'l ko'rsatuvchilik bilan chegaralanadi<sup>2</sup>.

Qoraqalpoq tilini o'qitishda o'quvchilarning bir-birini o'zaro baholashi muhimligi va bu hamkorlikda ishlashni talab etishi keyingi asosiy element sifatida "tengdoshni tengdosh baholashi"ni taklif qilishimizga sabab bo'ladi.

Ayni paytda, kelajakda qaysi kasblar talab qilinishini hech kim aniq bashorat qila olmaydi, ammo mutaxassislar muvaffaqiyatli xodim qanday fazilatlarga yega bo'lishi kerakligini allaqachon aytib o'tishgan. Murakkab muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuvni qo'llash, jamoada ishlash va odamlarni boshqarish, o'zingizning va boshqalarning his-tuyg'ularini tan olish, tahlil qilish va


<sup>1</sup> Wacker J.G. A Definition of Theory: Research Guidelines for Different Theory-Building Research Methods in Operations Management // Journal of Operations Management. – 1998. – № 16 – P. 361-385. [http://dx.doi.org/10.1016/S0272-6963\(98\)00019-9](http://dx.doi.org/10.1016/S0272-6963(98)00019-9)

<sup>2</sup> Kao Y. Vygotsky's theory of instruction and assessment: the implications on foreign language education. Dissertation. USA. – 2014. – 280 p.



qaror qabul qilish, muzokaralar olib borish va ko'p vazifali rejimda ishlash kabi ko'nikmalar insonga muvaffaqiyatga yerishishga yordam beradi.

Ushbu bilimlar asosida 4K modeli yaratildi. U yerta yoshdan boshlab rivojlanishi mumkin bo'lgan va kerak bo'lgan to'rtta asosiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. (1-rasm)



(1-jadval)

<b>Kolloboratsiya</b>	O'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.
<b>Kommunikativlik</b>	o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.
<b>Kreativ fikrlash</b>	O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.
<b>Kritik (tanqidiy) fikrlash</b>	Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

4K modelining tarkibiy qismi kolloborativ ko'nikma orqali tengdoshni tengdosh baholashi guruhga o'z xatolarini bilish va ularni o'qituvchiga topshirishdan oldin xatolarni tuzatish imkoniyatin beradi. Bizningcha, tengdoshni





tengdosh baholashi qo'yidagi bosqichlarda olib borishni tashkil etish mumkin. (2-jadval)

Birinchisi bosqich	muayyan guruhdagi o'quvchilar o'zaro bir-birlarining ishlarini baholash, bunda bir guruh tarkibidagi o'quvchilar bir-birlarini ishlarini baholaydilar. Bir-birining ishini ko'rib chiqib, qoniqarli natijalarga erishgandan so'ng, ularning ishlari ikkinchi usul yordamida baholanishi mumkin
Ikkinchi bosqich	bir guruh vakillari boshqa guruh vakillari ishlarini baholashini nazarda tutiladi. Bu orqali o'quvchilar boshqa guruh vakillarining ishlarini ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi va baholash jarayonida ular tengdoshlarining ishlarini o'zlari bilan taqqoslashi va hamkorlikda ishlab, xatolarini va kamchiliklarini aniqlashi mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar bir-birlaridan o'rganib, qoraqalpoq tilini mustaqil egallashga intiladi.
So'ngi bosqich	o'zaro baholashdan so'ng o'qituvchi o'quvchilarning ishini tekshiradi. O'zaro tekshirishdan o'tgan ishlardan xatosiz natijalar olinishi kutiladi, chunki bitta ish uch marta tekshiriladi: o'z-o'zini tekshirish (bir guruh a'zolari), tengdoshlar (boshqa guruh vakillari) va o'qituvchi tomonidan baholash

Zamonaviy tadqiqotchilarda 4K ko'nikmalarining o'quvchi faoliyatida qo'llashda qo'yidagi universal ko'nikmalar shakllanish holatlari ko'zatilish holati mavjud. Ular insonning shaxsiy fazilatlarini qo'yidagilar aks yettiradi:

- ✓ ularning odamlar bilan muloqot qilish;
- ✓ vaqtini samarali tashkil yetish;
- ✓ ijodiy fikrlash;
- ✓ qaror qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati.

Ta'lim mazmunida o'quvchi ingliz tilidan ko'zda tutilgan 4K ko'nikmalari asosan, mashqlar asosida rivojlantiriladi. Topshiriqlar bu o'rinda ko'proq o'quvchi bilimini boyitishga xizmat qiladi. Ingliz tili ta'lim mazmunini rivojlantirishda topshiriqlari ustida ishlash metodikasini takomillashtirish lozim. (2-rasm)



1) kognitiv va metakognitiv ko'nikmalar: tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, o'zini o'zi boshqarish, o'rganish qobiliyati.

2) ijtimoiy va hissiy ko'nikmalar: yempatiya, o'z-o'zini samaradorlik, mas'uliyat, hamkorlik.

3) amaliy va jismoniy ko'nikmalar: turli materiallar bilan ishlash qobiliyati, jismoniy kuch, yepchilik va boshqalar.

Ushbu tasnifga asoslanib, kelajakdagi ko'nikmalarning 4 ustuni, yuqori tartibli ko'nikmalar yoki boshqa yo'l bilan ular "4K" kompetensiyalari deb ataladi: muloqot, tanqidiy fikrlash, hamkorlik, ijodkorlik ko'nikmalari shakllanishiga imkon beradi. Umumta'lim maktablarida 4K tamoyili assoida o'quvchilarni o'qitishga doir topshiriqlari an'anaviy shaklda bajarishi orqali quyidagi ko'nikmalar shakllanadi. (rasm) Tadqiqotchi M. Nelson ham o'zaro baholashni qo'llab-quvvatlaydi va o'qituvchidan va boshqa guruhlardan olingan fikr-mulohazalarga tayanib muntazam ravishda formativ baholashni kiritish kerakligini ta'kidlaydi<sup>3</sup>. Tengdoshi yoki o'qituvchi tomonidan baholanishi har bir guruh a'zosining vazifasini, ularning topshiriqni bajarish uchun qo'shgan hissasini aniq bilishni yoki qatnashmaganliklari uchun jazolashni ta'minlab beradi. Tengdoshni tengdosh baholashda qiyinchilikka uchramasligi uchun mavjud S. Raxmidjati va hamkasblari tomonidan o'quvchilarning gapirish malakasini baholash uchun ishlab chiqilgan baholash mezon<sup>4</sup> takomillashtirilib, yangi "tengdoshning fikr-mulohazasi" bo'limi qo'shilgan holda quyidagicha o'zgartirish kiritdik:

O'quvchilar bir-birlarini aniq mezon asosida baholashi;

<sup>3</sup> Nelson L.M. Collaborative problem solving // In C. M. Reigeluth (Ed.), *Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. – 1999. – P. 241-267.


<sup>4</sup> Rachmijati C., Anggraeni A., Apriliyanti D. Implementation of blended learning through youtube media to improve students' speaking skill // OKARA: Jurnal Bahasa dan Sastra. – 2019. № 13 (2) – P. 153-164. DOI: 10.19105/ojbs.v13i2.2424





o'z fikr-mulohazalarini yozishi uchun alohida ustun kiritilganligi ulardan qo'yilgan ballni asoslab berishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilardan diqqat bilan tekshirish uchun bor bilim mahoratini ishga solishi va yuqori kognitiv fikrlash darajasi sifatida keltirilgan analiz va sintez qilishni talab etadi.

4K modeli tarkibidagi kolloborativ tamoyil qoraqalpoq tilidan og'zaki nutqni quyidagi beshta mezon asosida tekshirilish talab etiladi. (3-Rasm)



- 1) aniq va tushunarli nutq so'zlash;
- 2) grammatik tuzilmalardan oqilona foydalanish va grammatik xatolar;
- 3) so'z boyligining yetarliligi va so'zlarni kontekstga mos ravishda to'g'ri qo'llay olishi;
- 4) ravon nutq so'zlay olish va to'g'ri talaffuz qila olishi;
- 5) berilgan vaqt ichida fikrni to'liq bayon etish va o'ziga ishonch bilan nutq so'zlashga qaratilishi inobatka olinadi. Ushbu mezonlarning har biriga maksimal uch balldan ajratilgan va har bir baholash mezoniga qay holatda bir, uch, to'rt, besh qo'yilishi batafsil tavsiflangan bo'lib, umumiy hisobda talaba maksimal 25 ball olishi mumkin. O'quvchilarga mazkur baholash mezoni taqdim etilishidan oldin albatta o'qituvchi tomonidan batafsil tushuntirish berilishi, mezonlar va qay holatda uch, to'rt, besh ball qo'yilishining tavsifi batafsil izohlanishi lozim.



**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Wacker J.G. A Definition of Theory: Research Guidelines for Different Theory-Building Research Methods in Operations Management // Journal of Operations Management. – 1998. – № 16 – P. 361-385. [http://dx.doi.org/10.1016/S0272-6963\(98\)00019-9](http://dx.doi.org/10.1016/S0272-6963(98)00019-9)
2. Kao Y. Vygotsky's theory of instruction and assessment: the implications on foreign language education. Dissertation. USA. – 2014. – 280 p.
3. Nelson L.M. Collaborative problem solving // In C. M. Reigeluth (Ed.), Instructional design theories and models: A new paradigm of instructional theory. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum. – 1999. – P. 241-267.
4. Rachmijati C., Anggraeni A., Apriliyanti D. Implementation of blended learning through youtube media to improve students' speaking skill // OKARA: Jurnal Bahasa dan Sastra. – 2019. № 13 (2) – P. 153-164. DOI: 10.19105/ojbs.v13i2.2424
5. Bekimbetova, G. R. (2023, November). TEACHING THE KARAKALPAK LANGUAGE IN SCHOOLS WHERE EDUCATION IS CONDUCTED IN OTHER LANGUAGES. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 11, pp. 91-95).
6. Bekimbetova, G. R. (2023, November). PRAGMATIC FOUNDATIONS OF TEACHING THE KARAKALPAK LANGUAGE. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 11, pp. 86-90).
7. Bekimbetova, G. R. (2023). Linguodidactic possibilities of teaching the Karakalpak language. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(1), 584-590.
8. Bekimbetova, G. R. (2023). Opportunities for learning the Karakalpak language. Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 1(1), 573-578.
9. Bekimbetova, G. R. (2023). ISSUES OF CONSIDERING LEARNERS' LEVELS OF KNOWLEDGE IN TEACHING KARAKALPAK LANGUAGE IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES. Estudios Italianos, 10(2), 549-556.